

O'ZBEK MUMTOZ SHE'RIYATI (NAVOIY) IJODI NAMUNALARINING INGLIZ TILIDA TARJIMA QILISHDAGI QIYINCHILIKLAR

To'rayeva Zarina Nasilloeyvna

Buxoro Davlat Universiteti Filologiya fakulteti Qiyosiy tilshunoslik, Lingvistik tarjimashunoslik
yo'nalishi 1-kurs magistranti

1991.zarinaturaeva@gmail.com

Annotatsiya

Tarjima-bu bir tildagi matnni boshqa bir tilga qayta yaratishdan iborat bo'lib, u millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishidir. She'r esa badiiy ijodning his tuyg'ularga boy eng nafis namunasidir. She'r nasrga qaraganda boshqacha rol kasb etadi, chunki unda katta umumlashtiruvchi kuch mavjud. She'r inson kechinmalari, kayfiyati va ichki dunyosini, his tuyg'ularini to'laroq va chuqurroq bayon qila oladi. O'zbek mumtoz she'riyati namunalarining ingliz tiliga qilingan dastlabki tarjimalarini, shubhasiz, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy nomisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Alisher Navoiy ijodi har zamon va har davr uchun saboq bo'ladigan o'lmas g'oyalar, fikr va qarashlar ummonidir. Ushbu tezisning maqsadi Navoiy asarlarining ingliz tilida tarjimasining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Kalit so'zlar: g'azal, vazn, nasr, she'r, aruz

Kirish

O'zbek mumtoz adabiyotining XV asrgacha bo'lgan tarixiy taraqqiyotiga yakun yasab, uni yanada yuqori pog'onaga ko'targan ulug' iste'dod sohibi, mutafakkir Alisher Navoiy o'z ijodiy faoliyati bilan jahon adabiyotining yirik namoyondalari safidan faxrli o'rin egallaydi.

Alisher Navoiyning asarlari shu qadar ulkan ahamiyatga egaki, unga xos bo'lgan xususiyatlari va ularning ingliz tilida o'ziga xos jihatlarini o'rganishni va tahlil qilish zamonaviy tarjimashunoslik fani uchun g'oyat zarur ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bu daho zot haqida bejizga O'zbekiston Respublikasi prezidentini o'zining “Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch” asarida “Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”¹ deya ta'rif bermagan.

Sharq shariyatida ingliz adabiyoti uchun u qadar xos bo'lmagan ma'noning haddan tashqari serqirraligi, nihoyatda boyligi, kinoya va majoz kuchliligi, ishoralarga o'ta moyillik va so'zning serma'no jilolarga egaligi mavjud. Inglizchaga Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarning asarlarini ko'ngildagidek tarjima qilishga erishish uchun, shubhasizki, ingliz adabiy jarayonida, adabiyotshunosligida sharq so'z san'ati o'ziga xosliklari haqida yetarlicha tasavvurlar shakllangan bo'lishi kerak. Hozircha bu borada u qadar ma'qul darajada erishilgani yo'q. Shunga qaramasdan ingliz tarjimonlari Navoiy asarlarini badiiyatini imkon qadar qayta yaratish va tadbil etishga intilganlar. Navoiy asarlarini boshqa tillarga to'la shirasi, ohangi, g'oyasi-yu mazmuni bilan tarjima qilinishi avval mutarjimning o'zi shoirni qanday tushunganganligiga, qolaversa, tushuntira

¹ I.A Karimov Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat 2008

olish qobiliyatiga ya’ni qalami kuchiga bog’liq. Navoiy asarlarining mazmunini to’la anglamay turib chinakam tarjima yaratib bo’lmaydi.

Har bir tarjima til imkoniyatlari va mezonlari darajasida amalga oshiriladi. Ma’noni saqlab qolishga urinish ohang, badiiyat, qofiyaning buzilishiga sabab bo’lishi mumkin. Albatta, tarjimonning mumtoz adabiyotimiz durlari sanalmish Navoiy g’azallari tarjimasiga qo’l urishi, ya’ni ”Navoiy panjasiga panja urishi” ga intilishi ibratli. Tarjimalarga nazar solsangiz, mutarjim L. Kmetyuk g’azalning umumiy g’oyasini berish maqsadida o’z tilida turli ekvivalentlar qidirganligi va tinimsiz izlanganligini sezasiz. Ammo tarjimon asliyatni o’zi tushunib olishi bilan birga, bu tushunchalarni o’quvchilar ongiga singdirishning yo’lini ham izlashi kerak. Bu jarayon uchun neki talab qilinsa, chorasini ko’rish uning chekiga tushadi. Endi bir bor g’azalga nazar tashlasak:

Hazrat Alisher Navoiyning mashhur g’azali L. Kmetyuk tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan.²

Qaro ko’zum, kelu mardumlug’ emdi fan qilg’il,

Ko’zum qarosida mardum kebi vatan qilg’il.

Yuzing guliga ko’ngil ravzasin yasa gulshan,

Qading niholig’a jon gulshanin chaman qilg’il.

Takovaringg’a bag’ir qonidin hino bog’la,

Itingga g’amzada jon rishtasin rasan qilg’il.

Firoq tog’ida topilsa tuprog’im, ey charx,

Xamir etib, yana ul tog’da ko’hkan qilg’il.

Yuzung visolig’a yetsun desang ko’ngillarni,

Sochingni boshtin-ayog’ chin ila shikan qilg’il.

Xazon sipohig’a, ey bog’bon, emas moni’,

Bu bog’ tomida gar ignadin tikan qilg’il.

Yuzida terni ko’rib o’lsam, ey rafiq, meni

Gulob ila yuvu gul bargidin kafan qilg’il.

Navoiy, anjumane shavq jon aro tuzsang,

Aning boshog’lig’ o’qin sham’i anjuman qilg’il.

Kmetyuk she’riy parcha³ni inglizchaga quyidagicha tarjima qilgan:

Come my dark eyed one come and show your kindness,

Weave a nest for yourself, in the depth of my pupils.

Come my dark eyed one come and learn then kindness

In the depth of my pupils, weave for yourself a nest

Turn the garden of my heart into a flowerbed, for the blossom

that is your face,

² <http://www.saviya.uz>

³ Navoiy g’azallarining sharh haqida, O’zbekiston til va adabiyoti, 1993-yil

*And the rest your slender form so like the sapling in the garden
that is my heart
Splash the hooves your brave steed in me heart's blood.
Bandage a henna under your steeds feet,
And weave a leash for your dog from the tendons of my sad soul, indeed.
And weave a leash for your dog from the tendons of my sad soul.
O Heaven, if at the foot of the mountain of separation my dust is discovered,
Knead it into the dough and sculpt from it powerful stone mason.
If you wish to encapture hearts in loving with you,
Curl your long hair into ringlets.
If you wish for your lovers to meet with your face,
Curl your hair up to down into rod like chains.
There is little the gardener can do stop the advance of the fall,
Should he even spike the roof of his garden with pine needles.
No gardener can stop the advance of the fall,
Even he spikes the roof of his garden with pine needles all.
O my friend, should I suddenly die at the sight seeing of perspiration
on your face...
O my friend, should I suddenly die seeing perspiration on her face...
Bath me in rose water and lay me to rest in a shroud made of rose petals.
Navoi, if you can put your heart all into a bouquet of joy,
Pick a sheaf of water of wheat and touching a flame to it let this candle be the revelation of the
nosegay.*

Ko‘rinib turibdiki, ushbu g‘azal ingliz tiliga aniq, semantik jihatdan to‘liq tarjima qilingan. Lekin ko‘plab tarjimalarda ko‘rinib qoladigan qusurlardan biri – istilohlar, tarixiy nomlar va original matn mansub bo‘lgan xalq mentaliteti, qadriyatlariga xos bo‘lgan elementlarning tarjima qilinmasdan qoldirilishidir. Masalan, I desire, O Hizr, to make a pilgrimage of the soul to Kaaba⁴ deb tarjima qilingan misrani o‘qigan ingliz kitobxonini o‘zining g‘arboha dunyoqarashidan kelib chiqib lirik qahramonning qandaydir “Hizr” ga murojaati mohiyatini tushunmaydi. Shuningdek, ba’zi g‘azallarda uchraydigan mashhur tarixiy shaxslar, adabiy qahramonlarning nomlari notanish bo‘lgani bois G‘arb kitobxonini ushbu tarjimadan to‘liq qoniqmaydi.

Xulosa

Alisher Navoiyning zakovati, iste’dodi favqulodda boy va rang-barang. Shoir tasviriy vositalardan foydalanishda ajoyib namunalar yaratadiki, badiiy mahoratning bu o‘ziga xos tomoni Navoiy dahosiga sidqidildan xizmat qilgan va xizmat qilayotgan tarjimonlar oldiga til, uslub va milliy

⁴ A. “Pearls from Ocean”. Ummondan durlar. G‘azallar, hikmatlar va ruboiylardan namunalar. Tarjimalar to‘plami / Tuzuvchi Y.Parda. – Toshkent: Sharq, 2000. – 113-bet.

an'analar bilan bog'liq ko'pdan-ko'p muammolarni dadil, mustaqil hal qilish vazifasini ko'ndalang qo'yadi. Alisher Navoiy asarlarining klassik uslubi va ohangini boshqa tilda qayta yaratish uchun o'sha tilning Navoiy zamonasiga parallel davridagi arxaik so'zlar lug'atidan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, Navoiy g'azaliyotini ingliz tiliga o'girishda, unga davriy jihatdan muvofiq keluvchi inglizabon shoirlar asarlari leksikadan foydalanilsa yuksak uslub, davr ruhiyati tarjimada yorqinroq ifoda etilishi mumkin. Bunday tajriba “Farhod va Shirin” dostonini rus tiliga tarjima qilishda amaliyotda qo'llangan bo'lib, rus poeziyasi tarixi bisotidan sey, uzret, ochi, vlastelin, vladi'ka, vsevi'shniy, tvorets, nebo (xudo ma'nosida), arxangel, chelo kabi so'zlarning tanlab olinishi va bu ishning natijasi o'laroq asar tarjimasidagi uslub, qadimiylilik, shartli arxaika jilosining berilishi va Navoiy davri koloritining tarjimada qayta yaratilishi tajribaning muvaffaqiyatli ekanligidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.A Karimov Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat 2008
2. Navoiy g'azallarining sharh haqida, O'zbekiston til va adabiyoti, 1993-yil
3. <http://www.ziyonet.uz>
4. A. “Pearls from Ocean”. Ummondan durlar. G'azallar, hikmatlar va ruboiylardan namunalar. Tarjimalar to'plami / Tuzuvchi Y.Parda. – Toshkent: Sharq, 2000. – 113-bet.
5. Salomov G'., Jo'rayev K., Olimov S. Tarjima san'ati. 4-kitob. To'plovchi T.Jo'rayev. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1978. 134-bet.
6. <http://www.saviya.uz>
7. Davlatov Sh.A “Alisher Navoiy asarlari ingliz tilida” 2011